



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024  
2/1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 2/1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д. Ф.А.Сафаров

катта ўқит. Ш.З.Ўразов

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида  
тарқатилади.

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темура кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти в.б., DSc

<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Muhabbatxon Zayniddin qizi Berdaliyeva</b> Zamonaviy sharoitda uy-joy qurilishini moliyalashtirish asoslari	151
<b>To‘yli Gulmurodovich Ravshanov</b> Misr mamlakatida turizm sohasini moliyalashtirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari	156
<b>Наргиза Музафаровна Бабаева</b> Суғурта компанияларининг инвестицион фаолиятини ривожлантиришнинг стратегик йўналишлари	162
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Мехрангиз Олимовна Мамаюнусова</b> Оилавий корхоналар фаолиятига таъсир қилувчи омилар таҳлилини такомиллаштириш	167
<b>Дилмурод Холмўминович Жўраев</b> Акциядорлик жамиятларида ҳисоб сиёсатини тузишнинг ўзига хос хусусиятлари	174
<b>Otabek Olimjonovich Sobirov</b> Boshqaruv hisobining mohiyati va uni tashkil etishda budjetlashtirishning ahamiyati	178
<b>To‘lqin Ismatulla o‘g‘li Yahyoyev</b> Qurilish korxonalarida ko‘rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar tahlili.	182
<b>Юлдуз Шарафитдиновна Рахманова</b> Инвестициявий кўчмас мулкларнинг тасарруф этилиши натижалари ҳисобини такомиллаштириш	185
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Nasiba Raxmatullayevna Ergasheva</b> Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish	190
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Саидахроп Гулямов, Мамаюнус Пардаев</b> Ҳикмат ахтарганга ҳикматдир дунё	196
<b>ИБРАТЛИ БИТИКЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Қуръон рақамларда	198

# ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА

UDK: 339.466.54

Nasiba Raxmatullayevna Ergasheva – QarMII mustaqil izlanuvchisi

## QASHQADARYO VILOYATI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AUTSORSING XIZMATLARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish asosida mijoz tomonidan outsorsing xizmatlar bozorini tanlash, outsorsing shartnomasini tuzish va boshqarish jarayonlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** outsorsing, outsorser, maktabgacha ta'lim tashkiloti, xavf, samaradorlik, outsorsing mexanizmi, sifat, outsorsing xizmat, baholash, narx, outsorsing narxi

**Kirish.** Yangi O'zbekistonda taraqqiyotning hozirgi bosqichida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini to'liq xususiy sektorga o'tkazish orqali ularning sifati va samaradorligini oshirish, aholining ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "...maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan qamrab olish samaradorligini yanada oshirish, DXSH asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini keng joriy etish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish"[1] ustuvor vazifalar etib belgilangan. Shuningdek, O'zbekistonda outsorsing xizmatlarining rivojlanishi maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom ovqatlanishni tashkil etish, sog'liqni saqlash tizimida bemorlarni ovqatlantirish, kir yuvish, tibbiy buyumlarni zararsizlantirish, tibbiy tashxislar, global raqamli ekotizim, biznes jarayonlari outsorsingi sohasini jadal rivojlantirish o'ta dolzarb va muhim vazifalardan deb qaralmoqda. Ushbu yo'nalishdagi vazifalarni amalga oshirish outsorsing xizmatlarini rivojlantirish asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash yo'llarini o'rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida outsorsing xizmatlari yaqin yillarda paydo bo'ldi. Bu outsorsing shartnomalarini faol ravishda tuzishni boshlagan mahalliy tashkilot va kompaniyalar uchun yangi xizmat ko'rsatish sohasi. Fikrimizcha, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmini amaliyotda tarqalishini cheklovchi omillardan biri – ulardan foydalanishning ishlab chiqilgan to'g'ri mexanizmning yo'qligi hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash muammosi va ularni amaliyotga joriy etishga bag'ishlangan ishlanmalar tahlili, shuningdek, outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmi muammosini o'rganish xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni va ulardagi joylar sonining ko'payib, bolalarni qamrab olish darajasining oshishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda —2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori [2] muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu Qaror asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish Dasturi qabul qilinib, unga asosan davlat, davlat-sherikchilik, xususiy, oilaviy bilan ta'minlash belgilangan edi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatidan foydalanish bo'yicha ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilinib kelmoqda. Ushbu olimlar Gilmiyarova M.R. [3], Fedorova YE.A., Yermolov A.V. [4], Korneychik M., Lyasuskaya N. [5], Vasilyev A.S., Mirgorodskaya T.V. [6], Yeskova L.F., Drozd A.M., Manevich A.V. [7], Pardayev M. Q. [8], Urazov B.K. [9] va boshqalar. Ushbu tadqiqot yo'nalishining o'ziga xos xususiyati shundaki, mavjud xorijiy va mahalliy ilmiy ishlarining aksariyati faqat outsorsing xizmatlari bozorining ayrim segmentlariga qaratilgan. Bu asosan outsorsingning ma'lum bir turidan foydalanish va u

bilan bog‘liq muammolarga tegishli tadqiqotlardir.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmini nazariy tadqiqotlar va O‘zbekiston Respublikasi tashkilotlari tomonidan to‘plangan juda kam amaliy tajribaga qaramay, outsorsing xizmatlaridan sifatli foydalanish mexanizmi rivojlanish yo‘lida bormoqda. Ushbu masala bo‘yicha ilmiy ishlarning juda kamligi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash faoliyatini ishlab chiqadigan chuqur va tizimli tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirishni asoslab berish, outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga qo‘llashning uslubiy ta‘minotini yaxshilashga qaratilgan masalalar, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, so‘rovnoma va iqtisodiy tahlillash va tizimli tahlil bilan izohlanadi.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekiston iqtisodiyotida outsorsing xizmatlari nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi. Bu outsorsing shartnomalarini faol ravishda tuzishni boshlagan mahalliy kompaniyalar uchun yangi xizmat ko‘rsatish sohasidir. Bizning fikrimizcha, bunday xizmatlarning mahalliy amaliyotda tarqalishini cheklovchi omillardan biri ulardan foydalanishning ishlab chiqilgan, kelishilgan mexanizmining yo‘qligi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan biz ushbu sohani o‘rganishni, menejerlar va kompaniyalar rahbarlarining mumkin bo‘lgan xatolarga yo‘l qo‘ymasliklari uchun outsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida foydalanish mexanizmining eng muhim nuqtalarini aniqlashni zarur deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan biz outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmini O‘zbekiston maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga ushbu xizmat turidan amalda foydalanish imkonini beruvchi mantiqiy o‘ziga xos harakatlar tizimi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilamiz. Mexanizmining taniqli ta‘riflari orasida quyidagilar mavjud:

**Iqtisodiy mexanizm** – tashkiliy tuzilmalar va boshqaruvning o‘ziga xos shakllari va usullari, shuningdek huquqiy normalar majmui, ular yordamida muayyan sharoitlarda, takror ishlab chiqarish jarayonida amal qiladigan iqtisodiy qonunlar amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

**Nazorat (boshqarish) mexanizmi** – bu kishilar faoliyatiga ta‘sir qilish vositalari majmuidir. Vositalarga manfaatlar, qadriyatlar, motivlar, munosabatlar, qo‘rquvlar, ustuvorliklar va rag‘batlantirish kiradi. Boshqarish vositalari hayot sharoitlari bilan shakllanadi va boshqaruv munosabatlari jarayonlarida loyihalashtiriladi. Boshqarish jarayoni boshqaruv harakatini tashkil etuvchi harakatlar, jarayonlar ketma-ketligi va xizmatning sifatida ifodalanadi.

**Xodimlarni boshqarish mexanizmi** – tashkilotdagi xodimlarning kasbiy tajribasini boshqarish, uning martaba strategiyasini amalga oshirishni ta‘minlaydigan ta‘sir ko‘rsatish vositalari va kadrlar texnologiyalari to‘plami.

**Mahsulot sifatini boshqarish mexanizmi** – bu o‘zaro bog‘liq bo‘lgan boshqaruv obyektlari va subyektlari, mahsulot hayotiy to‘siqlikning turli bosqichlarida va sifat menejmenti darajalarida qo‘llaniladigan tamoyillar, usullar va boshqaruv funksiyalari va boshqalar.


Mexanizm konsepsiyasini shakllantirishga turli yondashuvlarni o‘rganish asosida, **bizning fikrimizcha**, outsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida foydalanish mexanizmi haqidagi qarashlarini taqdim etamiz: outsorsingning maqsadi va vazifalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan mijoz tashkilotlarning mantiqiy harakatlari tizimi, boshqaruv tamoyillari, funksiyalari va usullarini aniqlash, outsorsing tashkilotini tanlash, shartnoma tuzish va uning barcha bosqichlarida minimal risklar bilan bajarilishini nazorat qilish, maxsus tashkiliy tuzilma – vakolatlar markazi yordamida ko‘rsatiladigan xizmatlarning yuqori samaradorligi va sifatidir.

Yuqoridagi ta‘riflar mazmunidan kelib chiqib, biz xo‘jalik yurituvchi subyektlarni boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida outsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida foydalanish mexanizmining tarkibiy elementlarini shakllantirdik (1-rasm).

Bugungi kunda respublikada jami 29 420 ta maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyati yo‘lga

<sup>1</sup> Райзберг Б. А. Современный экономический словарь / Б. А. Райзберг, Л. Ш. Лозовский, Е. Б. Стародубцева. 2-е изд., испр. М. : ИНФРА-М, 1999. 479 с.

qo‘yilgan. Maktabgacha yoshdagi 2,9 mln nafar boladan 2,1 mln nafari yoki 71,8 foizi maktabgacha ta’limga qamrab olingan bo‘lsa, ularning 647 655 nafari (90%) 6 yoshli bolalar tashkil etmoqda. Shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida 2888 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lib 2018-yilga nisbatan 2562 ta yoki 8,9 marta oshganini ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).



**Eslatma:** X2S - xavflar, samaradorlik va sifat

<b>NAZORAT FUNKSIYALARI</b>	tadqiqotni rejalashtirish	Autsorsing xizmatlari uchun tashkilotni tanlash	iqtisodiy-tashkiliy	<b>BOSHQARUV USULLARI</b>
	tashkilotni rejalashtirish	Shartnoma tuzish autsorsing tashkiloti (X2S uchun ball)	iqtisodiy-tashkiliy	
	tashkilot motivatsiyasini muvofiqlashtirish	Xavf samaradorlik va Sifat ko‘rsatkichlariga e‘tibor berish)	ijtimoiy-psixologik	
	muvofiqlashtirish nazoratini tartibga solish	Shartnomaning amal qilish muddati (X2S ko‘rsatkichlariga e‘tibor berish)	Iqtisodiy-tashkiliy, ijtimoiy-psixologik	
	tadqiqotni rejalashtirish	Shartnomani tugatish yoki davom ettirish (haqiqiy baholash xizmat sifati)	tashkiliy-iqtisodiy	

**1-rasm -Autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida foydalanish mexanizmining tarkibiy elementlari<sup>1</sup>**

1-jadval ma’lumotlaridan shuni ko‘rish mumkinki, mintaqada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tumanlar kesimida 3-6 yoshgacha bolalarni qamrab olish darajasi yildan yilga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa Qarshi, Shahrisabz, Mirishkor, Chiroqchi tumanlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari 4 barobardan 20 barobargacha oshgan.

**1-jadval  
Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tuman va shaharlar kesimidani holati, soni<sup>2</sup>**

№	Tuman va shaharlar	Yillar					2022 yilda 2018 yilga nisbatan, % da
		2018	2019	2020	2021	2022	
1.	Qarshi shahri	39	90	105	140	166	425,64
2.	Shahrisabz shahri	29	56	75	99	156	537,93
3.	G‘uzor tumani	25	31	51	57	134	536,00
4.	Dehqonobod tumani	7	20	51	74	160	2285,71

<sup>1</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

<sup>2</sup>Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

5.	Kasbi tumani	24	36	101	127	191	795,83
6.	Kitob tumani	22	44	68	94	188	854,55
7.	Koson tumani	38	58	123	187	257	676,32
8.	Qamashi tumani	14	23	49	68	202	1442,86
9.	Qarshi tumani	18	33	66	117	215	1194,44
10.	Mirishkor tumani	17	23	44	82	160	941,18
11	Muborak tumani	14	25	44	49	75	535,71
12	Nishon tumani	20	28	63	97	126	630,00
13	Chiroqchi tumani	12	27	74	118	252	2100,00
14	Shahrisabz tumani	21	59	74	105	202	961,90
15	Yakkabog‘ tumani	26	42	89	144	329	1265,38
16	Ko‘kdala tuman	0	0	0	0	75	100,0
	<b>JAMI</b>	326	595	1 077	1 558	2888	<b>8,9 marta oshgan</b>

2-jadval bolalarni qamrab olish darajasi 20 foizdan 50 foizgacha oshganini ko‘rishimiz mumkin (2-jadval).

**2-jadval**

**Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tuman va shaharlar kesimidagi qamrab olish darajasi<sup>1</sup>**

№	Hududlar	MTT		Shundan	
		3-6 yoshli bolalar soni, kishi	3-6 yoshli bolalarni MTT qamrab olish darajasi, %	xususiy MTT	
				3-6 yoshli bolalar soni, kishi	3-6 yoshli bolalarni MTT qamrab olish darajasi, %
1	Shahrisabz shahri	4 571	39	2 942	25
2	Qarshi shahri	7 996	43	3 914	21
3	G‘uzor tumani	8 030	43	4 127	22
4	Dehqonobod tumani	2 829	19	3 592	25
5	Qamashi tumani	6 511	25	5 302	20
6	Qarshi tumani	6 951	34	6 919	33
7	Koson tumani	9 166	35	6 740	26

<sup>1</sup>Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

8	Kasbi tumani	5 823	33	4 532	25
9	Kitob tumani	5 946	25	4 727	20
10	Mirishkor tumani	2 804	27	3 888	38
11	Muborak tumani	2 866	39	1 798	24
12	Nishon tumani	6 350	46	2 837	21
13	Chiroqchi tumani	5 330	20	6 276	24
14	Shahrisabz tumani	7 382	37	4 283	22
15	Yakkabog‘ tumani	6 862	26	8 092	31
16	Ko‘kdala tumani	3 827	19	1 726	9
<b>Jami</b>		93 244	30,9%	71 695	23,8

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Qashqadaryo mintaqasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ko‘p qismini xususiy va davlat sherikchilik maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatida 2022-yil 3-6 yoshli bolalar soni 93244 nafarni tashkil etib, 3-6 yoshli bolalarni MTT qamrab olish darajasi 30,9 %ga teng. Ayrim tumanlarda bolalarni qamrab olish darajasi yuqori – Nishon, Qarshi, Shahrisabz va G‘uzor tumanlarida 45-49 foizni tashkil etadi. Mintaqada xususiy Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 3-6 yoshli bolalar soni 716954 kishini tashkil etib, qamrab olish darajasi juda past 23,8 foizni tashkil etmoqda.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lishicha oxirgi yillarda Qashqadaryo mintaqasida 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qamrab olish darajasi tumanlar kesimida yuqori darajaga erishilgan. Ayniqsa, Nishon, Shahrisabz va Yakkabog‘ tumanlarida 3-6 yoshli bolalarni qamrab olish darajasi 5-8 martagacha oshganini ko‘rishimiz mumkin, G‘uzor, Kasbi, Kitob, Qarshi, Muborak tumanlarida esa 4-5 martagacha qamrab olish darajasi oshgan. Shuning uchun ham Qashqadaryo mintaqasida 4,11 martaga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yosh bolalarni tarbiyalash, bilim berish va maktabga tayyorlash jarayoni yaxshi yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat beradi, ammo mintaqadagi 3-6 yoshli bolalarni MTT (maktabgacha ta’lim tashkilotlari)da qamrab olish darajasi Samarqand, Buxoro va Farg‘ona viloyatlariga qaraganda past ekanligi aniqlandi. Qashqadaryo mintqasida 3-6 yoshli bolalarning umumiy soni 298311 kishini tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2018-yilga nisbatan 56468 nafarga bolalar ko‘payganligini va maktabgacha ta’lim tashkilotlariga oshganligidan dalolat beradi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi fikrlarni jamlagan holda, bizningcha outsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida foydalanish mexanizmi haqidagi qarashlarini taqdim etgan holda: outsorsingning maqsadi va vazifalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan mijoz tashkilotlarning mantiqiy harakatlari tizimi, boshqaruv tamoyillari, funksiyalari va usullarini aniqlash, outsorsing tashkilotini tanlash, shartnoma tuzish va uning barcha bosqichlarida minimal risklar bilan bajarilishini nazorat qilish, maxsus tashkiliy tuzilma - vakolatlar markazi yordamida ko‘rsatiladigan xizmatlarning yuqori samaradorligi va sifatidir.

Umumiy xavfning texnologik nosozlik (4 ta ko‘rsatkich bo‘yicha) va outsorsening malakasi (6 ta ko‘rsatkich bo‘yicha) bo‘linishi hisobga olingan. Bunday holda, tadqiqotda uchta zona olingan bo‘lib: **yuqori, o‘rta va past xavf.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari outsorsing xizmatlaridan foydalangandan so‘ng loyihaning xavfliligini baholash uchun 8 ta yo‘nalish bo‘yicha loyihani amalga oshirishning haqiqiy sifatini o‘lchash taklif etildi. Ko‘rsatkichning 71-100% oralig‘idagi darajasi yuqori real sifatni va shuning uchun kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosozliklarning past ko‘rsatkichini tavsiflaydi. Bundan tashqari, sheriklar kelajakda munosabatlarni yuqori ishonch asosida yangilashlari mumkin.

Shuningdek, mutaxassislar tajribasidan foydalanish va olingan baholarni shakllangan sifat zonalarini bilan bog‘lash taklif etildi: past, o‘rta, yuqori. Xavf, samaradorlik, sifat mexanizmini

shakllantirish tizimining ko‘rsatkichlari uchun qiymatlarning mavjudligi maktabgacha ta’lim tashkilotlari outsorsing xizmatlaridan foydalanganidan so‘ng asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga, ya’ni maktabgacha ta’lim tashkiloti va outsorsing tashkiloti o‘rtasida shartnoma va uning keyingi amalga oshirishga imkon beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatidan foydalanish holati va xavflarni, sifat va samaradorlikni baholash usullari ishlab chiqildi va tizimlashtirish amalga oshirildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing loyihalarini qo‘llashda xavflarni, sifat va samaradorlikni o‘lchash usullari bo‘yicha asosli xulosalar chiqarildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda —2017-2021 yillarga maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori

3. Гилмиярова М.Р. Проблемы и перспективы развития бухгалтерского аутсорсинга // Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление, 2017. - № 2. - С. 76-80.

4. Федорова Е.А., Ермолов А.Б. Анализ современных тенденций в аутсорсинге бухгалтерского учета // Финансовая аналитика: проблемы и решения. - 2016 . - № 27 - С. 4-14.

5. Корнейчик М., Лягуская Н. Развитие бухгалтерского аутсорсинга в Республике Беларусь [Электронный ресурс]. - Режим доступа: [http://сoДнус.ат.уа/публ/2016\\_03\\_31\\_Ивив/сексия сестион 8 2016\\_03\\_31/развитиэ букһааитерскоао аутсорсиная в республике беларус/122-1-0-1848](http://сoДнус.ат.уа/публ/2016_03_31_Ивив/сексия сестион 8 2016_03_31/развитиэ букһааитерскоао аутсорсиная в республике беларус/122-1-0-1848). - Дата доступа: 02.05.2018.

6. Васильев А.С., Миргородская Т.Б. Проблемы и перспективы аутсорсинга бухгалтерского учета в России // Международный научно-исследовательский журнал, 2015. - Выпуск № 1. Част 2. - С. 19-21.

7. Ескова Л.Ф., Дрозд А.М., Маневич А.Б. Аутсорсинг в Республике Беларусь [Электронный ресурс]. - Режим доступа: [http://эииб.бсу.бй/битстрем/123456789/89793/1/дрозд\\_маневич\\_сборник11Жом1.пдф](http://эииб.бсу.бй/битстрем/123456789/89793/1/дрозд_маневич_сборник11Жом1.пдф). - Дата доступа: 12.03.2017.

8. Пардаев М.Қ. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари.—Т.: «Иқтисод–молия». 2008. – 260 б.

9. Урозов Б.К. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида бухгалтерия хисоби ва аудитнинг долзарб масалалари. – Т.: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2011. – 260 б.

<p><b>Н.Эргашева</b></p> <p><b>Совершенствование механизма использования аутсорсинговых услуг в дошкольных образовательных организациях Кашкадарьинской области</b></p>	<p><b>N.Ergasheva</b></p> <p><b>Improving the mechanism of using outsourcing services in preschool educational organizations of Kashkadarya region</b></p>
<p><b>Аннотация:</b> в данной статье представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по выбору клиентом рынка аутсорсинговых услуг, заключению и управлению аутсорсинговым договором, основанные на совершенствовании механизма использования аутсорсинговых услуг в дошкольных образовательных организациях.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> аутсорсинг, аутсорсер, организация дошкольного образования, риск, эффективность, механизм аутсорсинга, качество, аутсорсинговая услуга, оценка, цена, стоимость аутсорсинга.</p>	<p><b>Abstract:</b> this article presents scientifically based suggestions and recommendations on the selection of the outsourcing services market by the client, the signing and management of the outsourcing contract, based on the improvement of the mechanism of using outsourcing services in preschool educational organizations.</p> <p><b>Keywords:</b> outsourcing, outsourcer, preschool education organization, risk, efficiency, outsourcing mechanism, quality, outsourcing service, evaluation, price, cost of outsourcing.</p>

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

22.05.2024 йилда теришга берилди. 7.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076А/24.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.